


## KOMBINATORIKA MASALALARI VA ULARNI YECHISH USULLARI



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI

SAMARQAND DAVLAT

UNIVERSITETI AKADEMIK

LITSEYI MATEMATIKA

FANI O'QITUVCHILARI :

**Ne'matov Shuxrat O'ktamovich ,****Hamzayev Baxtiyor Amirovich ,**

Umarov Shokirjon Sheraliyevich

Kombinatorika- matematikaning keng tadbiqlarga ega bo'limlaridan biri.

Turmushda, texnika va ishlab chiqarishda uchraydigan masalalarni yechish usullari ko'p bo'lishi mumkin.

Ta'rif. Biror chekli to'plam elementlari ichida ma'lum bir xossaga ega bo'lgan elementlaridan iborat qism to'plamlarni tanlab olish yoki to'plam elementlarini ma'lum bir tartibda joylashtirish bilan bog'liq masalalar kombinatorik masalalar deyiladi.

Kombinatorikada qo'shish va ko'paytirish qoidasi deb ataluvchi ikkita asosiy qoida mavjud:

Yig'indi qoidasi: Agar a ob'ektni m usul bilan va b ob'ektni k usul bilan tanlash mumkin bo'lsa, u holda "a yoki b" ob'ektni  $m+n$  usul bilan tanlash mumkin.

Ko'paytma qoidasi: Agar a ob'ektni m usul bilan va b ob'ektni k usul bilan tanlash mumkin bo'lsa, u holda  $(a,b)$  juftni  $m \cdot n$  usul bilan tanlash mumkin.

Masala: Korxonada 10 erkak va 8 ayol xodim ishlaydi. Shu korxonadan bitta xodimni necha xil usulda tanlab olish mumkin?

Yechish: Bu qo'shish qoidasiga mos tushadi, demak javob:  $10+8=18$

Masala: Chorvador 10 ta qo'y va 15 ta echki sotmoqchi. Haridor bitta qo'y va bitta echki olmoqchi. U necha xil usulda sotib olishi mumkin?

Yechish: Bu ko'paytirish qoidasiga mos tushadi, demak javob:  $10 \cdot 15 = 150$

Kombinatorik masalalarni yechishda ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri o'rinn almashtirish tushunchasidir.

Ta'rif. Chekli va n ta elementdan iborat to'plamning barcha elementlarini faqat joylashish tartibini o'zgartirib qism to'plam hosil qilish n elementli o'rinn almashtirish deb ataladi.

Berilgan n ta elementdan tashkil topadigan o'rinn almashtirishlar soni  $P_n$  bilan belgilanadi.

Teorema. n ta elementdan iborat o'rinn almashtirishlar soni  $P_n=n!$  formula bilan hisoblanadi.

Bu yerda  $n!$  en faktorial deb o'qiladi va  $n!=1\cdot2\cdot3\cdots n$  kabi aniqlanadi. Bunda  $0!=1$  deb olinadi. Masalan,  $3!=1\cdot2\cdot3=6$ ,  $4!=1\cdot2\cdot3\cdot4=24$ ,  $5!=1\cdot2\cdot3\cdot4\cdot5=120$  va hokazo. Faktoriallarni hisoblashda  $(n+1)!=n!\cdot(n+1)$  tenglikdan foydalanish qulay bo'ladi. Masalan,  $n=3$  elementli  $\{a,b,c\}$  to'plamdan hosil bo'ladigan o'rinn almashtirishlar  $\{a,b,c\}, \{b,a,c\}, \{c,b,a\}, \{a,c,b\}, \{b,c,a\}, \{c,a,b\}$  bo'lib, ularning soni  $P_3=3!=1\cdot2\cdot3=6$ . bo'ladi.

Kombinatorik tushunchalardan yana biri kombinatsiya tushunchasidir.

Ta'rif. Chekli va n ta elementli to'plamning k ( $k < n$ ) ta elementli va kamida bitta element bilan farqlanadigan qism to'plam hosil qilish n elementdan k ta olingan kombinatsiya deyiladi.

Masalan,  $\{a,b,c\}$  ko'rinishdagi  $n=3$  elementli to'plamdan ikkita elemenli kombinatsiyalar  $\{a;b\}, \{a;c\}, \{b;c\}$  bo'lib, ularning soni 3 tadir. Bu yerda  $\{b;a\}=\{a;b\}$ ,  $\{a;c\}=\{c;a\}$ ,  $\{b;c\}=\{c;b\}$  deb olinadi.

n ta elementdan k tadan olingan kombinatsiyalar soni  $C_n^k$  kabi belgilanadi va uning qiymati  $C_n^k=n!/(k!(n-k)!)$  formula yordamida hisoblanadi.

O'rinn almashtishlarga doir misollar

1. Ertalabki pochta bilan maxsus agentlikka neft quvurlarini kovlash uchun yer uchastkalarining ijara narxi to'g'risidagi takliflar bilan 9 ta yopiq konvert keldi. Konvertlarni ochish tartibining necha usuli mavjud?
2. 5 ta turli xatni 5 ta turli konvertga necha xil usulda joylash mumkin?

3. 2, 4, 7, 9 raqamlaridan ularni takrorlamasdan nechta 4 xonali son tuzish mumkin? Ularning nechtasi 2 ga, 4 ga, 11 ga bo'linadi?

4. Tug'ilgan kuningizga taklif etilgan 4 ta do'stingizni 4 ta stulga necha xil usulda o'tkazish mumkin?

Kombinatorik masalalarni yechishda o'rinalashtirish deb ataluvchi tushunchadan ham foydalilanadi.

Ta'rif. Chekli va n ta elementdan iborat to'plamdan bir-biridan yoki elementlari yoki elementlarining joylashish tartibi bilan farq qiladigan va k ta elementdan iborat qism to'plamlarni hosil qilish n elementdan k tadan o'rinalashtirish deb ataladi.

Berilgan n ta elementdan k tadan o'rinalashtirishlar soni  $A_n^k$  kabi belgilanadi va uning qiymati

$A_n^k = n(n-1)(n-2)\cdots[n-(k-1)]$  yoki  $A_n^k = n!/(n-k)!$  formula bilan hisoblanadi.

Masalan,  $\{a,b,c\}$  to'plamdan n=3 elementdan k=2 tadan o'rinalashtirishlar  $\{a;b\}$ ,  $\{b;a\}$ ,  $\{a;c\}$ ,  $\{c;a\}$ ,  $\{b;c\}$ ,  $\{c;b\}$  bo'lib, ularning soni

$A_3^2 = 3 \cdot 2 \cdot 1 = 6$  yoki  $A_3^2 = n!/(n-k)! = 3!/(3-2)! = 6/1 = 6$ .

O'rinalashtrishlarga doir misollar

1. Turli raqamli nechta besh xonali son bor?

2. Nechta 4 xonali sonda faqat bitta 0 raqami mavjud?

3. Nechta 4 xonali sonda faqat bitta 5 raqami mavjud?

4. 2 ta har xil kitobni 20 ta o'quvchidan 2 tasiga bittadan berish sharti bilan necha xil usulda berish mumkin?

5. Futbol bo'yicha jahon championatida oltin,kumush, bronza medallari uchun bo'ladigan o'yinlarda 16 ta jamoa qatnashmoqda. Medallar jamoalar orasida necha xil usul bilan taqsimlanishi mumkin?

Kombinatorikaga doir ba'zi masalalarni yechish

masala. Fo'tbol bo'yicha musabiqaga 18 ta komanda qatnashmoqda. Musobaqa g'oliblari oltin, kumush va bronza medali bilan mukofatlanadi. Komandalarga medallar necha xil usul bilan taqsimlanishi mumkin?

Yechish. Masala yechimi (2) formula bilan hisoblanadi.

masala. Mashg`ulotda 12 ta basketbolchi qatnashmoqda. Trener har xil beshlik o`yinchilarni nechta usul bilan tuzish mumkin?

Yechish. Masala yechimi (4) formula bilan hisoblanadi

masala. Shaxmat taxtasida 8 ta to`ra (rux)ni bir-birini olmaydigan qilib nechta usul bilan tuzish mumkin?

Yechish. Bunday xilda shaxmat taxtasida gorizontal va vertikal уыналышда faqat bittadan to`ra (rux) joylashtarish mumkin. Mumkin bo`lgan joylashtirishlar (vaziyatlar) 8 elemantdan tuzilgan o`rinalmashtirishlardan iborat bo`ladi, ya`ni